



## TA'LIM FALSAFASI BARKOMOL AVLOD UCHUN ROLI VA AHAMIYATI

**Xamrayeva Muslima Odilovna**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute  
milliy g'oya falsafa kafedrası assistenti  
muslimaxamrayeva@mail.ru,  
+99899-123-03-77

**Saidov Begali Jamoliddinovich**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti milliy  
g'oya falsafa kafedrası 1-kurs talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15679455>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamda, O'zbekistondagi Pedagogika ta'lim falsafasi sifatini oshirishga qaratilgan davlat dasturi darajasi olib borilayotgan islohotlarning falsafiy tahlili yoritilgan. O'zbekiston Respublikasida Pedagoglarga barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish Pedagogning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash Pedagogikanidagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi.

**Аннотация:** В данной статье освещен философский анализ реформ, проводимых на уровне государственной программы, направленных на повышение качества педагогической философии образования в Узбекистане. В Республике Узбекистан к педагогам относятся как к основному средству формирования духовности всесторонне развитого человека. Воспитание, обучение и формирование личности – основная функция педагога. Воспитание личности считается основным понятием в педагогике и означает совместную деятельность семьи и общества, направленную на формирование всесторонне развитой личности.

**Abstract:** In this article, the philosophical analysis of reforms carried out at the level of the state program aimed at improving the quality of pedagogical philosophy of education in Uzbekistan is highlighted. In the Republic of Uzbekistan, teachers are treated as the main means of forming the spirituality of a well-rounded person. Educating, teaching and forming a person is the main function of a Pedagogue. Personality education is considered the main concept in Pedagogy and means the joint activity of family and society aimed at forming a well-rounded person.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasida Pedagoglarga barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi. ta'lim





nazariyasi, Shaxsni tarbiyalash, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi.

**Key words:** In the Republic of Uzbekistan, teachers are treated as the main means of forming the spirituality of a well-rounded person. educational theory, Personality education, refers to the joint activities of family and society aimed at forming a well-rounded person.


**Ключевые слова:** В Республике Узбекистан к педагогу относятся как к основному средству формирования духовности всесторонне развитой личности. Теория образования, Воспитание личности, относится к совместной деятельности семьи и общества, направленной на формирование всесторонне развитой личности.

Pedagogika (gr. 'παῖς', paida — bola, gr. 'ἄγω', gogos — yetaklovchi) atamasi qadimiy bo'lib, „bola yetaklovchi“ degan ma'noni bildiruvchi grekcha „paydogogos“ so'zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan, harbiy mahoratni o'rgatgan tarbiyachini, ya'ni qullarni „pedagog“ (bola yetaklovchi) deb atashgan. Keyinchalik esa, maxsus o'qitilgan va pedagoglikni o'ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan. **Pedagogika** (yun. paidagogs) — tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o'quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o'rganiladigan o'quv predmeti ham pedagog deb yuritiladi. “Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” [2], degan g'oya asosida so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida kichik yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi ikki barobarga ortdi, xalq ta'limi tizimida Prezident va ijod maktablari, matematika, kimyo va biologiya fanlari bo'yicha maxsus maktablar tashkil etildi, zamonaviy professional ta'lim tizimi shakllantirildi hamda yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 25 foizga yetdi. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug'ullangan. Zamonaviy pedagog bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o'quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan shugullanishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasida Pedagoglarga barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi. Pedagog tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish Pedagogning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash





Pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi. O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxsni tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy-intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo'ladi. Inson va uni shakllantirishga doir fan sifatida pedagogika falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, tibbiyot, matematika va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. Pedagogika fani va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, tahlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanadi. XX asr boshlaridan qiyosiy pedagogika alohida fan tarmog'i sifatida dunyoga keldi. Unda jahondagi turli xalqlarning pedagogik qarashlari va ta'lim-tarbiya tizimi qiyosiy-genetik yo'sinda bir-biriga solishtirilgan holda o'rganildi. Abdulla Avloniy pedagogikaga oid asarlarida ham, publitsistik maqolalari, she'r va dramalarida ham dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug'lab, xalqni ilmi, madaniyatli bo'lishga undadi [1]. Pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarini o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. O'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarini shakllantirish masalalarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyani tashkil etish, uyushtirish va uni boshqarish singari tashkiliy pedagogik ishlar qonuniyati pedagogikaning maktabshunoslik sohasi tomonidan ishlab chiqiladi. Pedagogika hamisha muayyan yoshdagi, ma'lum hayotiy va aqliy tajribaga ega bo'lgan kishilar bilan ish ko'radi. Shuning uchun ham pedagogikaning qonuniyatlarini belgilashda ta'lim-tarbiya oluvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.






Ayrim o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari va usullarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogikaning sohalari hisoblanadi. Bularga nisbatan didaktika umumiy metodika hisoblanadi va har bir alohida predmeti metodikasi xususiy didaktika sanaladi. Ammo bu xil chegaralanish anchagina shartlidir. Chunonchi, adabiyot o'qitish metodikasi didaktikaga nisbatan xususiy didaktika hisoblanadi, ayni vaqtda, u mumtoz adabiyot tarixini o'rganish metodikasi, chet el adabiyotini o'rganish metodikasi, xalq og'zaki ijodini o'rganish metodikasiga nisbatan umumiy metodika vazifasini bajaradi. Xususiy metodikalar umumiy didaktikaga tayangan va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina rivojlana oladi. Ayni vaqtda, har bir aniq fanga tatbiq etilgan didaktik qonuniyatlari o'sha o'quv predmetini o'qitish tajribasidagi o'ziga xoslik bilan boyitiladi, umumiy jihatlarni konkretlashtiradi, har bir o'ziga xoslikda o'qitishning universal jihatlari namoyon etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Авлони́й А. Танланган асарлар. 1-жилд. –Т.: «Маънавият», 1998.
2. Pedagogika, T., 1996; O'zbek pedagogikasi tarixi, T., 1997; Qurbonov Sh.,
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020
4. Seytxalilov E., Kadrlartayyorlash milliy dasturi: pedagogik tadqiqotlar yo'nalishi va muammolari, T., 1999; O'zbek pedagogikasi antologiyasi
5. Yaxshilikov J.Ya. Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. –T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot. 2018-yil. – B.516-517.
6. I.Karimov. „Donishmand xalkimizning mustaxkam irodasiga ishonaman“. T. 2000.
7. I. Karimov. „Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori“. T. 1997.
8. O'zbekiston Respublikasi „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“. T, 1997.
9. Konfutsiy (551 d.n.e — 479 d.n.e)
10. O'G'LI, XOLIQULOV MUHAMMAD QAXOR. "GEO-IDEOLOGICAL PROCESSES AND LAWS OF THEIR ORIGIN." International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences 4 (2024): 22-27.
11. Sadriyevna, Azizova Laylo, and Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li. "KOMIL INSON FALSAFIY GENEZISIDA ABU ALI IBN SINO QARASHLARI TAHLILI." BARCHA SOHALAR BO 'YICHA 32.10 (2023).
12. O'G'Li, Xoliqulov Muhammad Qaxor, and G. G'Ofirova Muxlisa. "Ofur Qizi." A. NAVOIYNING AR." BAIN (QIRQ HADIS) ASARIDA TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI





QARASHLARI." TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI 4 (2024): 24-28.

13. Xoliqulov, Muhammad Qaxor O'G'Li. "MA'NAVIYAT TUSHUNCHASINING MOHIYATI, UNING JAMIYAT STRUKTURASIDAGI O'RNI VA ROLI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4.26 (2024): 384-388.

14. Azlarova, Ozodaxon Xasanxonovna. "DAVLATNING KELIB CHIQISHI NAZARIYASI (SIVILIZATSION YONDASHUVLAR MISLIDA)." Analysis of world scientific views International Scientific Journal 3.1 (2025): 141-149.

15. Abduqodirov, Asilbek, and Muhammad Xoliqulov. "YOSHLARDA MAFKURAVIY IMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TIZIMINIDAGI KONSEPTUAL JIHATLARI." Академические исследования в современной науке 3.27 (2024): 100-105.

16. Kholikulov, Mukhammad. "Scientific-Theoretical and Philosophical Origin of the Doctrine of Unity in Sufism." (2023).

17. Odilovna, Xamrayeva Muslima. "O'ZBEKISTONNING MILLATLARARO SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI." Pedagogics 81.1 (2025): 47-49.

18. Odilovna, Xamrayeva Muslima. "O 'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNING FALSAFIY ASOSLARI." Tadqiqotlar 61.1 (2025): 292-295.

19. Shomurotovna R. Y. Comprehensive analysis of the problem of professional maladaptation quality and health status of nursing //zamonaviy ta'lim: muammo va yechimlari. – 2022. – T. 1. – С. 47-48.

20. Hakimovna X. X. O 'quvchilar jismoniy tarbiyasi tizimida qattish //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – С. 378-381.

21. Xonbuvi H. Yunusov Sardor Ashrafzoda indicator functions in medicine galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) issn (e): 2347-6915 Vol. 12. – 2024.

22. Khakimova H. H., Barotova R. S. THE IMPORTANCE OF PREVENTION IN MEDICAL PRACTICE //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – T. 2. – №. 2. – С. 96-98.

23. Хакимова Х. Х., Баротова Р. С. ЗНАЧЕНИЕ ПРОФИЛАКТИКИ В МЕДИЦИНСКОЙ ПРАКТИКЕ //Сеть медицины: Журнал медицины, практики и сестринского дела. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 96-98.

24. Хакимова Х., Худойназарова Н. Е. СПОРЫ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕДИЦИНСКОГО РАБОТНИКА //Сеть медицины: Журнал медицины, практики и сестринского дела. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 66-70.





25. Radjabova, Manzura Xurramovna. “Falsafiy-pedagogik yondashuvlar: media madaniyatini shakllantirishda ta’limning o’rni”. Ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlar tadqiqot asoslari jurnali 5.04 (2025): 96-98.

